



Gavhar BAYZAKOVA,
Toshkent davlat transport universiteti tayanch doktoranti, PhD
E-mail: abduraxmonovagavhar8@gmail.com

TDTTrU professori, f.f.d J.Ramatov taqrizi asosida

ALI QUSHCHI MEROSINING TABIIY-ILMIY FALSAFAGA OID KONSEPTUAL ASOSLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada XV asrning buyuk mutafakkiri Ali Qushchi ilmiy merosining tabiiy-ilmiy va falsafiy asoslari tahlil qilinadi. Muallif astronomiya va matematikani Aristotel fizikasidan ajratish orqali fanda mustaqil tadqiqot metodologiyasini yaratgani, uning ratsionalistik qarashlari o'rganadi.

Kalit so'zlar: Ali Qushchi, Samarqand maktabi, tabiiy-ilmiy falsafa, ratsionalizm, astronomiya, metodologiya, Aristotelizm, empirizm.

Conceptual Foundations of Natural-Scientific Philosophy in the Legacy of Ali Qushchi

Annotation

This article analyzes the natural-scientific and philosophical foundations of the scientific legacy of the 15th-century great thinker Ali Qushchi. It examines how the scholar created an independent research methodology in science by separating astronomy and mathematics from Aristotelian physics, as well as his rationalistic views.

Key words: Ali Qushchi, Samarkand school, natural-scientific philosophy, rationalism, astronomy, methodology, Aristotelianism, empiricism.

КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ЕСТЕСТВЕННО-НАУЧНОЙ ФИЛОСОФИИ В НАСЛЕДИИ АЛИ КУШЧИ

Аннотация

В данной статье анализируются естественно-научные и философские основы научного наследия великого мыслителя XV века Али Кушчи. Рассматривается, каким образом ученый, отделив астрономию и математику от аристотелевской физики, сформировал самостоятельную методологию научного исследования, а также исследуются его рационалистические взгляды.

Ключевые слова: Али Кушчи, Самаркандская школа, естественно-научная философия, рационализм, астрономия, методология, аристотелизм, эмпиризм.

Kirish. Bugungi kunda Prezidentimiz tashabbuslari bilan Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida madaniy aloqalar kuchaymoqda. Ali Qushchi – O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi "ma'naviy ko'priq" timsolidir. Uning merosini tadqiq etish turkiy xalqlarning umumiy ilmiy merosini tiklash va xalqaro hamkorlikni mustahkamlashda mafkuraviy ahamiyat kasb etadi. 2017 yil 23 iyundagi PQ-3080-sonli qarori bilan tashkil etilgan O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida Ali Qushchi kabi buyuk allomalarning ilmiy merosini o'rganish va targ'ib qilish alohida vazifa sifatida belgilangan; 2021 yil 19 martdagi PQ-5032-sonli "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida Ali Qushchi kabi allomalarning astronomiya va fizika sohasidagi an'analarini davom ettirish va yoshlar o'rtasida targ'ib qilish ko'zda tutilgan; 2022 yil 27 maydagi PQ-261-son qarori doirasida muzeylarda, xususan Samarqanddagi Ulug'bek rasadxonasi va majmuasida Ali Qushchi faoliyatiga oid ekspozitsiyalarni boyitish ko'zda tutilgan. Ali Qushchi Mirzo Ulug'bekning eng yaqin shogirdi va Samarqand rasadxonasi rahbari bo'lganligi sababli, davlat rahbarining nutqlarida u doimo "Renessans" poydevorini yaratgan allomalar qatorida e'tirof etiladi.

XV asrning buyuk mutafakkiri, astronom, matematik va tilshunos olim, Mirzo Ulug'bekning eng yaqin shogirdi va Samarqand rasadxonasining rahbarlaridan biri bo'lgan - Ali Qushchi (Alouddin ibn Muhammad al-Qushchi)ning Samarqanddan Istanbulga ko'chib o'tishi va u yerda ilmiy markaz tashkil etishi O'rta Osiyo ilm-fanining jahon sivilizatsiyasiga, xususan, Yevropa ilm-fani rivojiga qanday ta'sir ko'rsatganini ochib berish uchun xizmat qiladi. Bu "Uchinchi Renessans" poydevorini yaratishda tarixiy tajribadan foydalanish nuqtayi nazaridan dolzarbdir. Ali Qushchi faqat astronom emas, balki matematika va fizika sohasida ham inqilobiy g'oyalari surgan. Uning Yerning harakati haqidagi qarashlari Kopernikdan avvalroq

shakllangani, matematikada yangi usullarni qo'llagani bugungi kun fani uchun ham nazariy ahamiyatga ega. Dissertatsiya doirasida uning asarlarini zamonaviy matematik tilga o'tkazish va tahlil qilish fan tarixi uchun muhim yangilik bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ali Qushchi ilmiy merosi Sharq va jahon ilm-fani tarixida alohida o'rin tutgani bois, uning hayoti, faoliyati hamda ilmiy-falsafiy qarashlari ko'plab tadqiqotchilar tomonidan turli metodologik yondashuvlar asosida o'rganilgan. Xususan, zamonaviy ilmiy manbalarda Ali Qushchi Mirzo Ulug'bek ilmiy maktabining yetuk vakili sifatida baholalanib, uning astronomiya va matematika sohasidagi izlanishlari ilm-fan taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatgani qayd etiladi.

Ilmiy adabiyotlarda Ali Qushchining qomusiy olim sifatidagi faoliyati keng yoritilib, uning nafaqat falakiyot va riyoziyot, balki mantiq, falsafa, tilshunoslik va boshqa fanlarga oid risolalar yaratgani ta'kidlanadi. Bu esa uning ilmiy tafakkuri ko'p qirrali va tizimli xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ayrim tadqiqotlarda uning 20 dan ortiq ilmiy asarlari mavjudligi ham alohida e'tirof etiladi.

Ali Qushchi asarlari va ilmiy qarashlari zamonaviy tadqiqotchilar tomonidan ham chuqur o'rganilmoqda. Xususan, uning ilmiy merosi tarkibidagi ma'lumotlarning aniqligi, mantiqiy izchilligi va empirik asoslanganligi bugungi ilmiy metodologiya nuqtai nazaridan ham dolzarbligini saqlab qolayotgani qayd etiladi. Bu jihat allomaning ilmiy yondashuvi faqat o'z davri bilan cheklanib qolmay, balki zamonaviy fan taraqqiyoti uchun ham muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilayotganini ko'rsatadi.

Markaziy Osiyo xalqlarining tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy merosiga bag'ishlangan ilmiy darslik va tadqiqotlarda esa Ali Qushchi qarashlari Sharq uyg'onish davrining muhim bosqichi sifatida baholanadi. Ushbu manbalarda uning ilmiy faoliyati orqali tabiiy-ilmiy tafakkurning rivojlanishida yangi bosqich

boshlanganligi, ayniqsa, ilmiy bilishda mantiqiy va tajribaviy yondashuvlarning kuchaygani alohida ta'kidlanadi.

Shuningdek, tarixiy manbalarda Ali Qushchining ilmiy merosi Temuriylar davri ilmiy muhitida shakllangani va bu davrda ilm-fanning turli yo'nalishlari, jumladan, falakiyot, matematika va kalom ilmlari o'zaro uyg'unlikda rivojlanganligi qayd etiladi. Bu esa allomaning ilmiy qarashlarini o'rganishda uni o'z davrining ilmiy-intellektual konteksti bilan bog'liq holda tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Ali Qushchi merosi ko'proq tarixiy-ilmiy va aniq fanlar nuqtai nazaridan o'rganilgan bo'lib, uning tabiiy-ilmiy falsafaga oid konseptual qarashlarini chuqur va tizimli tahlil qilish hali ham dolzarb ilmiy muammo bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda Ali Qushchi merosining tabiiy-ilmiy falsafaga oid konseptual asoslarini ochib berish maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida tarixiylik, tizimlilik va mantiqiylik tamoyillariga tayangan holda, Sharq falsafiy tafakkuri va aniq fanlar rivoji o'zaro uyg'unlikda tahlil qilindi.

Avvalo, tarixiy-tahliliy metod asosida Ali Qushchining ilmiy qarashlari Temuriylar va Usmoniylar davrining ilmiy-madaniy muhiti bilan uzviy bog'liqlikda o'rganildi. Ushbu metod orqali allomaning ilmiy faoliyati shakllangan ijtimoiy-siyosiy va intellektual sharoitlar aniqlanib, uning g'oyalari tarixiy rivojlanish jarayonida baholandi.

Shuningdek, tizimli yondashuv (sistemali analiz) yordamida Ali Qushchi merosi yaxlit ilmiy-falsafiy tizim sifatida ko'rib chiqildi. Bu yondashuv uning astronomiya, matematika, mantiq va kalom sohasidagi qarashlari o'rtasidagi ichki bog'liqlikni ochib berish imkonini berdi.

Tadqiqotda mantiqiy-tahliliy metod ham muhim o'rin tutib, allomaning ilmiy xulosalari, konseptual g'oyalari va nazariy qarashlari izchil ravishda tahlil qilindi. Ushbu metod orqali uning ratsionalistik va empirik yondashuvlari, shuningdek, ilmiy metodologiyaga qo'shgan hisssasi ilmiy asosda yoritildi.

Bundan tashqari, qiyosiy-komparativ metod asosida Ali Qushchi qarashlari Aristotel falsafasi, o'rta asr Sharq mutafakkirlari hamda keyingi ilmiy tafakkur vakillarining g'oyalari bilan solishtirildi. Bu esa uning ilmiy qarashlaridagi yangilik va o'ziga xoslikni aniqlashga xizmat qildi.

Tadqiqotda, shuningdek, gnoseologik (bilish nazariyasi) yondashuvi qo'llanilib, Ali Qushchining bilish jarayoniga oid qarashlari, ya'ni aql va tajriba o'rtasidagi munosabat, ilmiy haqiqatni anglash usullari tahlil etildi. Bu orqali uning ilmiy tafakkurida ratsionalizm va empirizmning o'zaro uyg'unligi asoslab berildi.

Bundan tashqari, manbashunoslik va matnshunoslik metodlari yordamida allomaning asarlari, xususan, "Sharh at-Tajrid" va astronomik risolalari ilmiy jihatdan o'rganildi, ularning mazmuni, terminologiyasi va metodologik asoslari aniqlashtirildi. Qo'llanilgan metodologik yondashuvlar majmui Ali Qushchi merosini nafaqat tarixiy-falsafiy nuqtai nazardan, balki tabiiy-ilmiy konsepsiyalar tizimi sifatida ham chuqur va har tomonlama tadqiq etish imkonini berdi.

Tahlil va natijalar. Mazkur tadqiqot doirasida Ali Qushchi ilmiy merosining tabiiy-ilmiy falsafaga oid jihatlari tizimli va qiyosiy yondashuvlar asosida tahlil qilindi. Tahlillar natijasida allomaning ilmiy qarashlari o'rta asr ilm-fanida muhim metodologik va konseptual burilish yasanligi aniqlandi.

Birinchidan, Ali Qushchi tomonidan astronomiyani Aristotelning tabiiy falsafasidan ajratish g'oyasi ilmiy tafakkur tarixida yangi bosqichni boshlab berdi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, u osmon jismlarining harakatini izohlashda metafizik va spekuliyativ qarashlardan voz kechib, matematik modellashtirish va empirik kuzatuvlarni ustuvor deb hisoblagan. Natijada astronomiya mustaqil ilmiy soha sifatida shakllanishi uchun zarur metodologik asos yaratildi.

Ikkinchidan, Ali Qushchi ilmiy qarashlarida ratsionalizm va empirizmning o'zaro uyg'unligi aniqlanadi. U ilmiy bilishda nazariy xulosalarni faqat mantiqiy mulohaza bilan cheklab

qo'ymasdan, ularni amaliy kuzatuvlar bilan tasdiqlash zarurligini asoslab berdi. Bu yondashuv ilmiy haqiqatni aniqlashda tajriba va kuzatuvning muhimligini oshirdi hamda ilmiy metodning takomillashuviga xizmat qildi.

Uchinchidan, Yerning harakati masalasiga oid qarashlar tahlili Ali Qushchining ilmiy jasoratini namoyon etadi. U Aristotelning Yer qo'zg'almasligi haqidagi qarashlarini tanqidiy qayta ko'rib chiqib, mazkur muammoni falsafiy-dogmatik asoslardan chiqarib, fizik-matematik va tajribaviy muhokama doirasiga olib kiradi. Bu esa ilmiy muammolarni hal etishda yangicha yondashuv – eksperimental fikrlashning shakllanishiga olib keldi.

To'rtinchidan, allomaning "Sharh at-Tajrid" asari asosida olib borilgan tahlillar uning borliq, materiya, makon va vaqt tushunchalariga nisbatan mantiqiy va tizimli yondashuvni ilgari surganini ko'rsatadi. U kalom ilmini aniq fanlar metodlari bilan boyitishga intilib, diniy-falsafiy qarashlar va ilmiy tafakkur o'rtasida muvozanatni ta'minlashga harakat qilgan.

Beshinchidan, Ali Qushchining Samarqand ilmiy maktabida shakllangan ilmiy an'analarni Istanbul ilmiy muhitiga olib kirgani uning g'oyalarning amaliy natijasi sifatida baholandi. Tahlillar natijasida uning ta'lim tizimini isloh qilish orqali aqliy fanlarni rivojlantirishga qo'shgan hisssasi ilm-fanning ijtimoiy institutsional rivojida muhim omil bo'lganligi aniqlandi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Ali Qushchi ilmiy merosi nafaqat o'z davrida, balki keyingi ilmiy taraqqiyotda ham muhim nazariy va metodologik asos vazifasini bajargan. Uning ilmiy qarashlari tabiiy-ilmiy falsafaning shakllanishida ratsionalizm, empirizm va metodologik mustaqillik tamoyillarini qaror toptirgan holda, zamonaviy ilm-fan rivoji uchun mustahkam zamin yaratgan.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari asosida Ali Qushchi ilmiy merosining tabiiy-ilmiy falsafaga oid konseptual asoslari chuqur tahlil qilinib, quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

Birinchidan, Ali Qushchi tomonidan astronomiyani Aristotelning tabiiy falsafasidan ajratish g'oyasi o'rta asr ilmiy tafakkurida muhim metodologik burilish yasadi. Bu yondashuv ilmiy bilishda metafizik-dogmatik qarashlardan voz kechib, fanlarning mustaqilligini ta'minlashga xizmat qildi.

Ikkinchidan, allomaning ilmiy qarashlarida ratsionalizm va empirizmning uyg'unlashuvi ilmiy metodologiyaning yangi modelini shakllantirdi. U nazariy bilimlarni tajriba va kuzatuvlar orqali tekshirish zarurligini asoslab, ilmiy haqiqatni aniqlashda eksperimental yondashuvning ahamiyatini oshirdi.

Uchinchidan, Ali Qushchining Yer harakati masalasiga nisbatan bildirgan fikrlari ilmiy muammolarni falsafiy talqindan chiqarib, fizik-matematik tahlil doirasiga olib kirish zarurligini ko'rsatdi. Bu esa ilmiy tafakkurda tanqidiy va erkin fikrlash tamoyillarining rivojlanishiga zamin yaratdi.

To'rtinchidan, uning "Sharh at-Tajrid" asarida aks etgan borliq, materiya, makon va vaqt haqidagi qarashlari kalom ilmini mantiqiy va ilmiy metodlar bilan boyitishga qaratilgan bo'lib, diniy-falsafiy tafakkur va aniq fanlar o'rtasida muvozanatni ta'minlashga xizmat qildi.

Beshinchidan, Ali Qushchining Samarqand ilmiy an'analarni Istanbul ilmiy muhitiga olib kirishi va ta'lim tizimiga aqliy fanlarni joriy etishi uning ilmiy qarashlarining amaliy natijasi sifatida namoyon bo'ldi. Bu esa ilm-fanning ijtimoiy va institutsional rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Ali Qushchi merosi tabiiy-ilmiy falsafaning shakllanishida muhim konseptual asos bo'lib, u ilmiy tafakkurda mustaqillik, ratsionalizm va empirizm tamoyillarini qaror toptirgan.

Takliflar

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

Ali Qushchi merosini chuqur o'rganish va tizimlashtirish: uning ilmiy-falsafiy qarashlarini zamonaviy falsafa va ilm-fan metodologiyasi nuqtai nazaridan qayta tahlil qilish zarur.

Ta'lim tizimiga integratsiya qilish: oliy ta'lim muassasalarida, ayniqsa, falsafa, fizika va astronomiya

yo'nalishlarida Ali Qushchi ilmiy merosini o'quv dasturlariga kiritish maqsadga muvofiq.

Ilmiy-tadqiqotlarni kengaytirish: allomaning asarlarini zamonaviy ilmiy metodlar asosida tarjima qilish, izohli nashrlar tayyorlash va xalqaro ilmiy muomalaga kiritish lozim.

Interdisiplinar yondashuvni rivojlantirish: Ali Qushchi qarashlarini tabiiy fanlar, falsafa va tarix fanlari kesimida o'rganish orqali yangi ilmiy natijalarga erishish mumkin.

Raqamlashtirish va ommalashtirish: uning ilmiy merosini raqamli platformalarda joylashtirish, ilmiy-ma'rifiy loyihalar orqali keng jamoatchilikka yetkazish zarur.

Shunday qilib, Ali Qushchi ilmiy merosi nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki zamonaviy ilm-fan va ta'lim tizimi rivojida ham muhim nazariy va amaliy manba sifatida xizmat qilishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Тоҳиров Ж.А. Али Қушчининг “Шарҳ Тажрид ал-калом” асари – теуурийлар давридаги калом илмига оид муҳим манба. – Тошкент, 2022.
2. Иргашева Л.П. Али Қушчининг қаламига мансуб асарлар хусусида // “XXI аср: фан ва таълим масалалари” журнали. – 2025, №1. – Б. 515–520.
3. Муродова Д.Ш., Тўлаев Ш.Ш. Али Қушчи – илм инсони // ResearchBib журнали. – 2025. – Б. 493–496.
4. Али Қушчи. Илм излаган аллома (ахборот-библиографик қўлланма). – Тошкент.
5. Али Қушчи (1403–1474) ҳақида маълумотлар тўплами.
6. Рузматова Г., Пулатова Д., Мухамедов А. Марказий Осиё халқларининг табиий-илмий, ижтимоий-фалсафий мероси. – Тошкент: Fan va ta'lim, 2025.
7. Эргашев И. Тараққиёт фалсафаси. – Тошкент: Академия, 2000.